

FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING
ZAMONAVIY MODEL: INSTITUTSIONAL VA ILMIY YONDASHUV

D.K.Nasriddinov

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy modeli, uning institutsional va ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, global xavf-xatarlarning ortib borishi sharoitida malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, integratsiyalashgan o'quv dasturlari, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlashning samarali institutsional modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *favqulodda vaziyatlar, kadrlar tayyorlash, zamonaviy model, institutsional yondashuv, ilmiy yondashuv, innovatsion ta'lim, xavfsizlik, professional kompetensiya, integratsiya, xalqaro tajriba*

Annotation. *This article examines the modern model of personnel training in the field of emergencies, focusing on its institutional and scientific foundations. In the context of increasing global risks, the necessity of improving the system for training qualified specialists is substantiated. The study highlights innovative approaches in education, integrated curricula, mechanisms for developing practical skills, and the importance of research activities. Furthermore, based on international experience, an effective institutional model for training specialists in emergency management is proposed.*

Keywords: *emergencies, personnel training, modern model, institutional approach, scientific approach, innovative education, safety, professional competence, integration, international experience*

Bugungi globallashuv, iqlim o'zgarishi, texnogen xavflarning murakkablashuvi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Endilikda bu sohada nafaqat tezkor boshqaruv va amaliy ko'nikmalar, balki ilmiy tahlil, texnologik innovatsiya, tarmoqlararo integratsiya va yuqori malakali rahbar kadrlar tayyorlash ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-apreldagi "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-123-son qarori favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlash tizimini oddiy tashkiliy yangilash emas, balki uni konseptual jihatdan qayta qurishga qaratilgan strategik hujjat sifatida namoyon bo'ladi. Qarorda yangi tizimni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni zamon talablari

bilan uyg'unlashtirish, ta'lim jarayonini amaliyot bilan bog'lash hamda xalqaro raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan.

Qarorning eng muhim jihati shundaki, unda favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlashning ikki bosqichli yaxlit tizimi belgilangan. Mazkur tizim oliy ta'lim, maxsus kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishni yagona mexanizmga birlashtiradi. Qarorda tayanch oliy ma'lumotli mutaxassislar va magistrilar tayyorlash hajmini ikki baravarga oshirish, besh yil ichida zamonaviy kadrlar ulushini 50 foizga yetkazish, professional qutqaruvchilar safini uch karra oshirish, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini 3 yil ichida kamida 60 foizga yetkazish kabi aniq indikatorlar belgilangan. Shuningdek, 3 yil ichida 4 mingdan ortiq rahbar xodim va mutaxassisni qayta tayyorlash hamda har yili 35 ming nafar rahbar va mas'ul shaxslarni hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha o'qitish vazifasi qo'yilgan.

Bu ko'rsatkichlar sohada natijadorlikni faqat o'quv jarayonlari orqali emas, balki o'lchab bo'ladigan institutsional samaradorlik mezonlari orqali baholashga o'tish boshlanganini ko'rsatadi. Ilmiy yondashuv nuqtayi nazaridan bu, kadrlar siyosatida kvantitativ va sifat indikatorlariga asoslangan boshqaruv modelining shakllanayotganidan dalolat beradi.

Qaror bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi bazasida tizim yanada kengaytirilib, Fuqaro muhofazasi instituti hamda Malaka oshirish markazi Akademiya huzurida qayta tashkil etildi. Bundan tashqari, Qutqaruvchilar tayyorlash texnikumi va xorijiy kadrlarni tayyorlash fakultetini tashkil etish ko'zda tutilgan. Akademiya favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash sohalarida yuqori malakali, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy harbiy-texnik ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida belgilandi.

Mazkur institutsional yondashuvning afzalligi shundaki, u sohada kadrlar tayyorlashni alohida bo'g'inlar kesimida emas, balki vertikal integratsiyalashgan tizim ko'rinishida tashkil etadi. Bu esa tinglovchi, kursant, mutaxassis va rahbar kadrlarning ta'limdan amaliy faoliyatga o'tish zanjirini mustahkamlaydi.

Qarorning innovatsion jihatlaridan biri, - 2026/2027-o'quv yilidan boshlab dual ta'lim shaklini tajriba-sinov tariqasida joriy etishdir. Unga ko'ra, ta'limning nazariy qismi Akademiyada, amaliy qismi esa sanoat, energetika va ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etiladi. Bunda bir haftada kamida ikki kun nazariy mashg'ulotlar, qolgan kunlarda esa ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy jarayonlar o'tkazilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, 2026-yil 1-avgustga qadar Innovatsion dual ta'lim markazini tashkil etish belgilangan.

Pedagogik nuqtai nazardan dual ta'lim modeli favqulodda vaziyatlar sohasida ayniqsa muhimdir. Chunki bu yo'nalishda bilimning amaliyotga tez tatbiq etilishi, favqulodda holatda qaror qabul qilish, muhandislik, texnik xavfsizlik, qutqaruvchilik va boshqaruv ko'nikmalarining kompleks shakllanishi talab etiladi. Demak, mazkur qaror ta'limning mazmunini "bilim berish"dan "kompetensiya shakllantirish"ga yo'naltiradi.

Qarorda favqulodda vaziyatlar organlarida xizmatni o'tash tartibiga uzluksiz o'quv-karyera tizimini joriy etish belgilangan. Xususan, 2027-yil 1-sentabrdan boshlab harbiy unvon berish hamda ofitserlik lavozimlariga tayinlashning muhim shartlaridan biri sifatida

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tish zarurati belgilangan. 2030-yil 1-sentabrdan esa rahbar lavozimlarga tayinlanish uchun magistratura bosqichida o'qigan bo'lish talabi joriy qilinadi.

Bu yondashuv favqulodda vaziyatlar tizimida karyera o'sishini faqat xizmat staji yoki ma'muriy ehtiyoj bilan emas, balki bilim, malaka va kasbiy rivojlanish bilan bog'lashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu model "meritokratik professional rivojlanish" sifatida talqin qilinadi. Mazkur tamoyil rahbarlik lavozimlariga tayinlanishda sifat mezonlarini kuchaytiradi.

Qarorning eng muhim ilmiy jihatlaridan yana biri - ta'lim va ilmiy tadqiqotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashidir. Qarorda Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzurida Ilmiy ishlarni rivojlantirish idoralararo kengashini tashkil etish hamda transport, neft-kimyoy, tog'-kon, elektrotexnika va energetika, qurilish, gidrotexnika, geologiya, gidrometeorologiya, ekologiya, sanitariya va veterinariya kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot sektorlarini yo'lga qo'yish belgilangan. Mazkur kengash ilmiy muassasalardagi ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot sektorlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ilmiy izlanishlar va tajriba-konstruktorlik ishlari esa yillik reja hamda buyurtmalar asosida amalga oshiriladi.

Bu holat favqulodda vaziyatlar xavfsizligini endilikda tor doiradagi qutqaruv yoki yong'in xavfsizligi masalasi sifatida emas, balki ko'p tarmoqli ilmiy muammo sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, iqlim, ekologiya, sanoat xavfsizligi, atom energetikasi va texnosfera xavfsizligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha alohida ilmiy platformalar yaratish istiqbolida milliy xavfsizlikning ilmiy bazasini mustahkamlaydi.

Qarorda 2027/2028-o'quv yilidan boshlab xorijiy davlatlar favqulodda vaziyatlar organlari kadrlarini o'qitishni yo'lga qo'yish, xorijiy kadrlarni tayyorlash fakultetini tashkil etish, shuningdek, xorijiy ekspert-menejerni Akademiya boshlig'ining ilm-fan, texnologiya, innovatsiya va sun'iy intellekt masalalari bo'yicha maslahatchisi sifatida jalb etish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, atom energetikasi sohasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kadrlar tayyorlash, professor-o'qituvchilar va talabalarni ilg'or xorijiy ta'lim hamda ilmiy markazlarda o'qitish choralari belgilangan.

Bu yondashuv ta'lim tizimining ichki ehtiyojni qondirish bilan cheklanib qolmay, balki mintaqaviy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishga intilayotganini anglatadi. Bu, o'z navbatida, milliy akademik maktabning eksportbop bilim va kompetensiya markaziga aylanishi uchun asos yaratadi.

Qarorda professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash masalasi ham alohida aks ettirilgan. Jumladan, to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'larning kamida 30 foizi malakali mutaxassislarini jalb etish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilishi belgilangan. Bu ta'lim sifatini inson kapitali bilan bog'liq holda tushunishga qaratilgan muhim moliyaviy mexanizmdir.

Ilmiy salohiyatni oshirishga oid maqsadli ko'rsatkichlar bilan birga, ushbu rag'batlantiruvchi mexanizm o'qituvchining maqomi, ilmiy faoliyati va pedagogik samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-apreldagi "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-123-son qarori favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan strategik modelini taklif etadi. Ushbu modelning asosiy ustunligi shundaki, u ta'lim, amaliyot, ilmiy tadqiqot, rahbar kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni yagona boshqaruv mantig'ida birlashtiradi.

Qaror ijrosi natijasida favqulodda vaziyatlar sohasida professional va ilmiy kadrlar sifati oshadi, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeli mustahkamlanadi, rahbar xodimlarning boshqaruv kompetensiyasi kuchayadi, sohaning ilmiy-tadqiqot bazasi kengayadi hamda xalqaro standartlarga mos yangi ta'lim infratuzilmasi shakllanadi.

Shunday qilib, Qaror favqulodda vaziyatlar sohasida inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish va xavfsizlik boshqaruvini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim normativ-huquqiy asosdir. Nafaqat bugungi ehtiyojlarga, balki istiqboldagi texnogen va tabiiy xavf-xatarlarga moslashgan, zamonaviy va barqaror kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishga qaratilgan.